

Alisher Navoiyning pedagog va rahbarlar kompetentligi haqidagi qarashlari

Go'zal Erkinovna Xalikulova
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Samarqand va Movarounnahrning mashhur obidalari, go'zal manzaralariga doimo o'z munosabatini bildirib kelgan olim Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy o'z "Xamsa" sida bitilgan dostonlarida ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalari bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Xususan, "Saddi Iskandariy" dostonida "Podshohlar har narsani idrok qila bilishi, bilmasa donishvor olim kishilar bilan suhbatda bo'lib o'rganishi shart", degan ilg'or fikri maqolada o'z aksini topadi va ilgari suriladi. Alisher Navoiyning mashhur asarlaridan "Farhod va Shirin" da hali o'rganilmagan tahliliy ishlar bor. Navoiy oddiy ertakchi emas, uning har bir ifoda-obrazi, lavhalarida muayyan umumfalsafiy, ilohiy ma'no bor.

Kalit so'zlar: buyuk mutafakkir, Alisher Navoiy, matematika, astronomiya, hikmatshunoslik, tarbiya, xalq farovonligi, sabr-qanoat, mustahkam iroda, ishbilarmonlik qobiliyati, notiqlik

Alisher Navoi's views on competence students and leaders

Gozal Erkinovna Khalikulova
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: Alisher Navoi is a scientist who has always expressed his attitude to the famous monuments and beautiful landscapes of Samarkand and Movarounnahr. Alisher Navoi became famous throughout the world for his universal ideas put forward in his epic "Khamsa". In particular, in the epic "Saddi Iskandari", the article reflects and puts forward an advanced opinion that "kings should be able to understand everything, and if they don't know, then they should learn by talking with wise scientists." Among the famous works of Alisher Navoi "Farhad and Shirin" there are still unexplored analytical works. Navoi is an extraordinary storyteller, each of his expressions and pictures has a certain general philosophical and divine meaning.

Keywords: great thinker, Alisher Navoi, mathematics, astronomy, philosophy, education, public good, patience, strong will, business skills, eloquence

Buyuk mutafakkir shoir va alloma Alisher Navoiy noyob iste'dod egasi bo'lishi bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Navoiy matematika, astronomiya, hikmatshunoslik,

muhandislik ilmini qunt bilan o'rgangan. U Samarqand va Movarounnahrning mashhur obidalari, go'zal manzaralariga doimo o'z munosabatini bildirib kelgan. Hirotda o'zining vazirlik yillarida ham mansab va shon-shavkat uchun emas, balki butun kuchini el-yurt uchun xizmat qilishga, hunar ahli va hakimlar ishini xalq farovonligiga qaratgan. Xondamir "Xulosat ul-axbor" asarida "Amir Alisherning fazl-u hunar tabaqasining aksariga g'amxo'rliqi zo'rdir. Tazqib va tasvir ilmi hunarida benuqson va cheksiz bo'lgan qalam ahllari, shuningdek, zamon naqqoshlari va davr muhandislarining ko'pi ul hazratning tarbiya va ta'lim vositasi bilan bu hunarlarni o'rgandilar va atrof olamda monandi yo'q yaxshilar tengi bo'ldilar", degan fikrni keltiradi.

Alisher Navoiy o'z "Xamsa"sida bitilgan dostonlarida ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalari bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Xususan, "Saddi Iskandariy" dostonida "Podshohlar har narsani idrok qila bilishi, bilmasa donishvor olim kishilar bilan suhbatda bo'lib o'rganishi shart", degan ilg'or fikr ilgari suriladi. Iskandar Arastudan: "Nega odamlar qaysi ish foydali, qaysi ish zararli ekanini bilgan holda noxush xatti-harakatga yo'l qo'yadilar?" - deb so'raydi. Arastu javob berib shunday deydi: "Kishining aqli foydali ish qilish kerakligini biladi, nafs hamisha oson ishga intiladi: nafs o'z intilishiga erishsa, u odamlarni foydali ishlarning mahsulidan bebahra qiladi".

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida shoh va u boshqarayotgan xalq to'g'risida shunday yozadi:

Shoh - daryo va xalq erur anhor,

Ikkisining suvida bir maza bor.

Ya'ni donishmandlar shohni ulug', sermanok daryoga, aholisi va yaqinlarini esa, daryo atrofidagi anhorlarga o'xshatadilar. "Kimki shohga xizmatkor va qaram bo'lsa, ishi va odamlarga munosabati ham shohnikiga o'xshash bo'ladi. Agar shoh adolatparvar bo'lsa, vazirlari, aholisida ham adolatpeshalik bor. Agar shohning odati xalqqa zulm qilish esa, eli ham zulmga moyildir. Agar shoh imon, e'tiqodli bo'lsa, xalq ham o'z diniga amal qiluvchidir. Agar shoh kofirtabiat bo'lsa, qo'l ostidagi tobelarida ham xuddi shunday kofirlik fe'li avj oladi".

Alisher Navoiyning mashhur asarlaridan "Farhod va Shirin" da hali o'rganilmagan tahliliy ishlar bor. Navoiy oddiy ertakchi emas, uning har bir ifoda-obrazi, lavhalarida muayyan umumfalsafiy, ilohiy ma'no bor. Farhod boshqalarga o'xshagan emas, tug'ilganidan boshlab, bezovta. Yoshligidan mehnat va bilimga havas qo'yadi. Faqat mehnat va ijodkorligi bilan kamol topadi. Umrining oxirgi lahzalarigacha izlanadi, axtaradi. U, odam nimaiki qilgan bo'lsa faqat fikrlash orqali qilgan, fikrlash mumkin bo'lgan joyda hal qilinmagan mushkul ish bo'lmaydi, deb qaraydi, izlagan narsaning tagi, tugiga yetmaguncha tinchlano olmaydi. Sehrli ko'zgu orqali Yunoniston safaridagi tilsimotlar, dev, ajdaho nimalarning ramzi, tog'larda istiqomat qiluvchi donishmandlar

kimlar? Navoiy nega to'g'ridan to'g'ri Shirish bilan uchrashuvdan boshlamagan? Bular to'g'risida ko'p izlanishlar olib borilishi kerak. Negaki, Vatanni sevish, odamlarga yaxshilik urug'ini sochish, pok qalb egasi bo'lish, har qanday bilimlilar bilan bellasha oladigan sifatlarini o'rganish har qanday kishi uchun, avvalo pedagog va rahbarlar uchun muhim masala, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь. Ташкент-2007
2. Г.Е. Халикулова. Народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф-певец родного края и любви. Международная конференция, стр. 154-159
3. Г.Е. Халикулова. Актуальные проблемы подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров в институте. Театр// – Ташкент: 2014, стр. 9-10.
4. Г.Е. Халикулова. Проблемы создания персонажей в театральные постановки. Роль искусства и культуры в формировании духовности человека / Республика...
5. Г.Е. Халикулова. Проблемы гармонии речи и движения в создании пьесы. Творчество Мукарамы Тургунбаевой и развитие ее узбекской сценической хореографии...
6. Г.Е. Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Университет культуры и искусств в мировом образовательном пространстве: Российский...
7. Г.Е. Халикулова. Новые стилистические исследования, совершенствующие дыхание в овладении навыками сценической речи актера. Сохранение национальности в области хореографии в условиях глобализации...
8. Г.Е. Халикулова. Современный руководитель озабочен повышением профессиональной речи женщины. "Женщина - расцвет духовности" ЖизПи., 4-я Республиканская научно-практическая конференция...
9. Г.Е. Халикулова. Роль искусства в развитии страны, процветании народа и воспитании зрелого поколения. «Подготовка образованного и интеллигентного зрелого поколения» прошла в Ташкенте
10. Г.Е. Халикулова, Шодиев Х.Х. Повышение качества подготовки кадров и развитие отрасли в Государственном художественном институте Узбекистана. Проблемы создания образа героя времени в искусстве и культуре Узбекистана...
11. Г.Е. Халикулова. Духовная зрелость является обязательным требованием. ЖизПИ, сборник, стр. 363
12. Г.Е. Халикулова. Мастер деликатных слов. Статья к монографии «Мухсин Гамидов (Мастер художественного слова)» УзГСИ, стр. 8

13. Г.Е. Халикулова. Искусство на пути к развитию. Калдиргоч, Ташкент
14. Г.Е. Халикулова. Вопросы повышения активности молодежи в музыкальном исполнительстве и ее развития. Ташкентский ТДМИ, (Топлам)
15. Г.Е. Халикулова. Личные комментарии о современном театре. Калдиргоч, г. Ташкент, стр. 2
16. Г.Е. Халикулова. Сцена - историческая сцена. Театр, Ташкент, стр. 20-21
17. Г.Е. Халикулова. Поэзия Навои в речи актеров. Театральная, 10-11
18. Г.Е. Халикулова. Маннон Уйгур – выдающийся режиссер узбекского театра и мастер сценической речи. Институт литературы и искусства, Алматы, 59-60
19. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь и язык. Мулагот, Ташкент, 35
20. Г.Е. Халикулова. Сцена актера пуста. Театр, Ташкент, стр. 22-23
21. Г.Е. Халикулова. Преподавание воспитательного процесса по укреплению не сильных педагогов студентов - будущих педагогов. наука и образование 3 (4), 484-491
22. Г.Е. Халикулова. Спецновелла Ойбекнинга "Навои". наука и образование 3 (4), 300-307
23. Г.Е. Халикулова. Особенность поздравительной речи. наука и образование 3 (4), 769-776
24. Г.Е. Халикулова. Язык и стиль оммабопа. наука и образование 3 (4), 759-765
25. Г.Е. Халикулова. Речь Мирзо Улугбека в спектакле. наука и образование 3 (4), 353-358
26. Г.Е. Халикулова. Улучшить разговорные навыки женщин-ученых и руководителей. наука и образование 3 (4), 343-353
27. Г.Е. Халикулова. Алишер Навои драмасы олтин мерос. наука и образование 3 (4), 334-343
28. Г.Е. Халикулова. Ёш навкирон Навои сиймоси актерлар назарида. наука и образование 3 (4), 328-334
29. Г.Е. Халикулова. Интерпретация образа Мирзо Улугбеком - сцена школьной речи. наука и образование 3 (4), 317-328
30. Г.Е. Халикулова. Описание Алишером Навои тона и речи образа. наука и образование 3 (4), 307-312